

### AJDARHO OBRAZI XITOIY MADANIYATIDA

Norbo'tayeva Dilfuza Yusupovna

SamDCHTI stajyor o'qituvchi.

Furqatova Aziza Furqatovna

SamDCHTI Sharq tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: Xitoy tili yo'nalishi 2-bosqich 2403-guruh talabasi.

[azizafurkatova13@gmail.com](mailto:azizafurkatova13@gmail.com) +99893-236-36-63

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20279961>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xitoy mifologiyasidagi ajdarho obrazi, uning kelib chiqishi va ramziy ma'nolari tahlil qilinadi. Xitoy ajdarhosining qadimgi afsonalar, imperatorlik hokimiyati hamda tabiat hodisalari bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, ajdarholarning turlari, Longwang — ajdarho podshohlari haqidagi qarashlar hamda Xitoy va G'arb madaniyatidagi ajdarho obrazlari o'rtasidagi farqlar ham tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Xitoy mifologiyasi, ajdarho, 龙, Longwang, 《山海经》, qadimgi afsonalar, imperatorlik ramzi, Xitoy madaniyati, mifologik obraz, osmon va tabiat kuchlari.

Xitoy mifologiyasi dunyodagi eng qadimiy va boy mifologik tizimlardan biri hisoblanadi.

U ming yillar davomida shakllangan bo'lib, qadimgi xitoyliklarning tabiat, osmon, yer, ruhlar va inson haqidagi tasavvurlarini o'zida mujassam etgan. Xitoy afsonalarida tabiat hodisalari oddiy jarayon emas, balki, ilohiy kuchlarning faoliyati sifatida tushunilgan. Shu sababli tog'lar, daryolar, shamol, yomg'ir va dengizlarning "o'z ruhi bor" deb hisoblangan.

Xitoy mifologiyasida eng muhim va eng mashhur obrazlardan biri ajdarho — 龙 (lóng) hisoblanadi. Xitoy ajdarhosi G'arbdagi ajdarholardan mutlaqo farq qiladi. Yevropa afsonalarida ajdarho odatda yovuz "odamlarni qo'rqitadigan" va olov purkaydigan mavjudot sifatida tasvirlansa, xitoy madaniyatida u ezgulik, qudrat, donolik va osmon kuchining ramzi hisoblanadi.

Xitoyliklar ajdarhoni tabiat bilan uyg'unlikda yashovchi, suv va osmonni boshqaruvchi "ilohiy mavjudot" deb bilishgan. Ayniqsa, yomg'ir va hosildorlik bilan bog'liq e'tiqodlarda ajdarho muhim o'rin egallagan.

Chunki qadimgi Xitoy jamiyati asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan va hosil yomg'irga bog'liq bo'lgan. Shu sababli odamlar ajdarholardan yomg'ir so'rab marosimlar o'tkazishgan.[1]

Ajdarho obrazi qadimgi Xitoyda imperatorlik hokimiyati bilan ham chambarchas bog'langan. Imperator "Osmon o'g'li" deb atalgan va ajdarho uning ramziga aylangan. Imperator kiyimlarida besh tirnoqli ajdarho tasviri ishlatilgan. Oddiy odamlarning bunday ramzlardan foydalanishi ta'qiqlangan, hatto imperator taxti ham "ajdarho taxti" deb nomlangan. Bu ajdarhoni osmon va davlat qudratining belgisi sifatida ko'rilganini anglatadi. (Yuan Ke, 1993)

Xitoy ajdarhosi tashqi ko'rinish jihatidan ham juda qiziqarli tasvirlangan. Afsonalarga ko'ra, uning tanasi ilonga o'xshash uzun shaklda bo'ladi, tangachalari baliqnikiga o'xshaydi, shoxlari kiyikniki, panjalari esa yo'lbars yoki burgutnikiga o'xshatiladi. Demak, ajdarho bir nechta hayvon xususiyatlarini o'zida mujassam etgan afsonaviy mavjudot sifatida qaralgan [3].

U ko‘pincha bulutlar orasida uchayotgan yoki dengiz ustida harakatlanayotgan holatda tasvirlangan.

Qadimgi xitoy mifologiyasida ajdarholarning bir necha turlari mavjud bo‘lgan, misol uchun:

1. Tianlong — osmon ajdarhosi bo‘lib, ilohiy saroylarni qo‘riqlovchi mavjudot hisoblangan.  
2. Shenlong—yomg‘ir va shamolni boshqaruvchi ruhiy ajdarho deb qaralgan. 3. Dilong—yer va daryolar bilan bog‘langan ajdarho bo‘lgan.

4. Fuzanglong—yer ostidagi xazinalarni qo‘riqlovchi ajdarho sifatida tasvirlangan.

Bu tasnif xitoyliklarning tabiat hodisalarini mifologik obrazlar orqali tushuntirishga uringanini ko‘rsatadi.

Ajdarho Xitoy afsonalarida markaziy o‘rinni egallaydi. Birinchi ajdarho afsonaviy imperator Fu-Si davrida paydo bo‘lgan va osmonda Kung-Kung yirtqichi tomonidan yasalgan teshikni to‘ldirdi, deyiladi. Xitoy afsonalari yana shunday deyishadi: “uning uyg‘onishi, uxlashi va nafas olishi kechayu kunduz, mavsum va ob-havo bilan belgilanadi”.

Xitoy afsonalarida 龙王 (Lóngwáng), ya’ni Ajdarho podshohlari ham juda muhim o‘rin tutadi. Ular to‘rt dengiz hukmdori deb hisoblangan. [4] Har bir dengizning o‘z ajdarho podshohi bo‘lgan va ular yomg‘ir, suv va dengizlarni boshqargan. Baliqchilar va dehqonlar ularga sig‘inishgan, chunki ular suv bilan bog‘liq ofatlar yoki hosildorlikni boshqaradi deb ishonilgan.

Xitoy mifologiyasining eng muhim yozma manbalaridan biri 《山海经》 — “Shan Hai Jing” (“Tog‘lar va dengizlar kitobi”) hisoblanadi. Bu asar miloddan avvalgi IV–II asrlarda shakllangan bo‘lib, unda yuzlab tog‘lar, daryolar, afsonaviy mavjudotlar va ilohiy qahramonlar haqida ma’lumot berilgan. Kitobda ajdarholar, g‘ayritabiiy hayvonlar va sirli mavjudotlar juda ko‘p uchraydi. Ko‘plab keyingi xitoy adabiyoti, san’ati va mifologik qarashlari aynan shu asardan ilhom olgan.

Xitoy mifologiyasidagi yana bir mashhur asar 《西游记》 — “G‘arbiga sayohat” hisoblanadi. [5] Bu roman diniy-fantastik elementlarga boy bo‘lib, unda ajdarholar, ruhlar va osmon mavjudotlari haqida ko‘plab hikoyalar uchraydi. Ayniqsa, ajdarholarning osmon va dengiz bilan bog‘liq obrazlari bu asarda ham aks etgan.

Xulosa qilib aytganda, ajdarho obrazi hozirgi Xitoy madaniyatida ham katta ahamiyatga ega. Xitoy Yangi yilida mashhur ajdarho raqslari ijro etiladi, bayramni buzishni xohlaydigan yovuz ruhlardan himoya qilish maqsadida odamlar bu raqs o‘mad, baraka va farovonlik olib keladi deb ishonishadi. Ajdarho obrazi Xitoy madaniyatida nafaqat mifologik mavjudot, balki kuch, donolik va tabiat bilan uyg‘unlik ramzi sifatida muhim o‘rin egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Strassberg R. E. *A Chinese Bestiary: Strange Creatures from the Guideways Through Mountains and Seas*. — California: University of California Press, 2002. — 20–60-betlar.
2. “Yuan Ke — *Dragons and Dynasties: An Introduction to Chinese Mythology*” 1993.
3. 《山海经》 (*Shānhǎi Jīng / Classic of Mountains and Seas*). — Mil. avv. IV–II asrlar. — Penguin Classics, 1999. — 8–25-betlar.

4. Birrell A. *The Classic of Mountains and Seas*. — London: Penguin Classics, 1999. — 18–40-betlar.
5. 吴承恩. 《西游记》 (*Journey to the West*). — Ming sulolasi, XVI asr. — Foreign Languages Press, 1982. — 12-bob.